



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



O'ZBEKISTONDA TOG' TURIZMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Xidirov Alimardon Dagarovich

ВАЖНОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ГОРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Хидиоров Алимардон Дагарович

THE IMPORTANCE AND NEED FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF MOUNTAIN TOURISM IN UZBEKISTAN

Alimardon Dagarovich Khidirov

Received: March 5, 2026 Revised: March 9, 2026 Accepted: March 13, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: O'zbekiston tog'lari avvalo Pomir-Oloy so'ngra, Oloy-Hisor tog' tizmasiga kiritilgan bo'lib, tog' Oloy tog' tizmasining davomi hisoblanadigan Mastchoh tugunidan g'arbda Turkiston, Zarafshon va Hisor tizmalariga ajraladi. Bu tizma Mastchoh davonidan Jizzax shahrigacha meridional yo'nalishda 320 km gacha cho'zilgan, balandligi sharqdan-g'arbgacha tomon pasayib boradi. O'zbekiston tog'larining tabiati go'zal va maftunkor bo'lganligi sababli, xalqaro turistik obyektlarga boy hudud hisoblanadi. Shu boisdan bu hududlarda tabiatni hisobga olgan holda turistik obyektlarni qurish va xalqaro tog' turizmini innovatsion rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Tog'larda kurort-turistik obyektlarni qurishning zaruriyati respublika tekislik qismida ekologik holatning keskinlashuvi, yirik shaharlarda atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog'liqdir. Maqolada muallif O'zbekistonda tog' turizmini innovatsion rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyatini ilmiy asoslab bergan.

Kalit so'zlar: tog', turizm, tog' turizm xizmatlari, innovatsiya, hududiy rivojlanish, bandlik, tadbirkorlik, turizmga daromadlar, infratuzilma, investisiya, turizm bozori, texnika, texnologiya, tabiiy resurslar, atrof-muhit.

Аннотация: Горный хребет Узбекистана сначала включает Памир-Алойский, затем Алой-Гиссарский горный хребет, являющийся его продолжением, а затем на западе от Мачхского перевала разветвляется на Туркестанский, Зарафшанский и Гиссарский хребты, которые считаются продолжением Алойского. Этот хребет простирается от Мачхского перевала до города Джизак в меридиональном направлении на 320 км, и его высота уменьшается с востока на запад. Благодаря красивой и завораживающей природе гор Узбекистана, этот регион считается богатым международными туристическими достопримечательностями. Поэтому строительство туристических объектов в этих регионах с учетом природных особенностей и инновационное развитие международного горного туризма имеют важное научно-практическое значение. Необходимость строительства курортно-туристической инфраструктуры в горах связана с обострением экологической ситуации на равнинах республики и загрязнением окружающей среды в крупных городах. В статье автор научно обосновывает важность и необходимость инновационного развития горного туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: горы, туризм, услуги горного туризма, инновации, территориальное развитие, занятость, предпринимательство, доход от туризма, инфраструктура, инвестиции, туристический рынок, оборудование, технологии, природные ресурсы, окружающая среда.

Abstract: The mountains of Uzbekistan are first included in the Pamir-Aloy and then in the Aloy-Hissar mountain range, which is a continuation of the Aloy mountain range, and then splits into the Turkestan, Zarafshan and Hissar ranges in the west from the Mastchoh junction, which is considered a continuation of the Aloy mountain range. This range extends from the Mastchoh pass to the city of Jizzakh in the meridional direction for 320 km, and its height decreases from east to west. Due to the beautiful and fascinating nature of the mountains of Uzbekistan, it is considered a region rich in international tourist attractions. Therefore, the construction of tourist attractions in these regions, taking into account nature, and the innovative development of international mountain tourism are of significant scientific and practical importance. The need to build resort and tourist facilities in the mountains is associated with



the aggravation of the ecological situation in the plains of the republic and environmental pollution in large cities. In the article, the author scientifically substantiates the importance and necessity of innovative development of mountain tourism in Uzbekistan.

Keywords: mountain, tourism, mountain tourism services, innovation, territorial development, employment, entrepreneurship, income from tourism, infrastructure, investment, tourism market, equipment, technology, natural resources, environment.

■ KIRISH

Mamlakatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda aholi hayot darajasi va farovonligining barqaror o'sishiga imkon beruvchi faol tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga, Innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etishga, fan va Innovatsion faoliyat jadal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil natijalari mamlakatda faol tadbirkorlik va Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to'squinlik qiluvchi, jumladan, qator tizimli muammolar mavjudligidan dalolat beradi [1]. Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informasion-Innovatsion davrida kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi - bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o'zgarishlardir. Natijada iqtisodiy faoliyat subyektlari o'rtasida innovatsiyalarni ayirboshlash va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy jarayonlardagi tub o'zgarishlar (bozorning globalashuvi, axborot texnologiyalardan keng foydalanish, rivojlanishni boshqarish, biznesni tashkil etishdagi tarkibiy o'zgarishlar) turli korxonalarda islohotlar ko'lamini o'sishiga sabab bo'lmoqda.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda "innovasiya" tushunchasiga ta'rif berish uchun turli xil yondashuvlar paydo bo'la boshladi. E.A.Utkinning yondashuviga ko'ra innovasiya deganda "ishlab chiqarishga joriy etilgan obyekt tushuniladi"[2]. I.Stepanovanning fikriga ko'ra, "innovasiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi [3]. L.Vodachek va O.Vodachkova innovatsiyalarni "korxona faoliyatining tizim sifatida maqsadli o'zgarishi" deb ta'riflaydilar [4]. "innovatsiya" tushunchasining yuqoridagi ta'riflari o'zgarishlarni mikro-iqtisodiy xususiyatini aks ettiradi va bu erda ular tashkilot faoliyatini modernizatsiyalash omili sifatida ko'rib chiqilgan. B.Santoning fikriga ko'ra, innovasiya - bu yuqori sifatli texnologiyalar yaratiladigan texnik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. L.A.Bayev va E.V.Shugurov fikriga ko'ra, "innovasiya" tushunchasini aniqlashda quyidagi yondashuvlar mavjud [5]: obyektga ko'ra yondashuv; jarayonli yondashuv; obyekt-nafililik yondashuvi; jarayon-nafililik yondashuvi; jarayonli-moliyaviy yondashuv. Obyektga ko'ra yondashuvga asosan, ilmiy-texnik taraqqiyotning natijasi - yangi texnika va texnologiya - innovatsiyalar bo'lib xizmat qiladi. Obyekt mezoni quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi: bazis innovatsiyalar - yirik ixtirolarni amalga oshirishdan iborat, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga sabab bo'lgan innovatsiyalar; takomillashtiruvchi innovatsiyalar, ya'ni ilmiy-

texnologik siklning barqaror rivojlanishi bosqichida ko'p uchraydigan kichik ixtirolarni amalga oshiruvchi innovatsiyalar; soxta innovatsiyalar (rasionalizatorlik innovatsiyalar) texnika va texnologiyalarning eskirgan avlodlarini qisman takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, odatda texnik taraqqiyot sekinlashishiga olib keladilar, chunki ular jamiyatga hech qanday samara bermaydi yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Obyekt-nafililik yondashuviga ko'ra, innovasiya yangi ilmiy-texnik yutuqlarni joriy etish asosida ishlab chiqarilgan yangi iste'mol qiymati sifatida ta'riflanadi. Bu erda innovasiyaning nafililik vazifasi ustunlik qiladi - jamiyatning yuqori nafililikka ega bo'lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyati. Jarayon-nafililik yondashuvi doirasida obyekt-nafililik yondashuvdan farqli o'laroq, "innovasiya" kategoriyasiga yangi amaliy vositani barpo etish, tarqatish va qo'llashning yaxlit jarayoni sifatida qaraladi. Jarayon-moliyaviy yondashuv nuqtai nazaridan, innovasiya - bu yangiliklarga sarmoya kiritish, yangi asbob-uskunalar, texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni investitsiyalash jarayoni. I.Abdurahmonovning fikriga ko'ra, "Ilm mablag'ga aylansa, ana shu innovasiya" deb ta'riflaydi [6].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistonda tog' turizmini innovatsion rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati tahlil qilindi.

Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR


Ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi bo'lib tashkilotning har xil sohalarida qo'llaniladigan va innovatsiyalarni yaratilishiga sabab bo'ladigan ixtirolar va kashfiyotlar xizmat qiladi. Amaliy qo'llanilishidan so'ng ixtirolar innovatsiyalarga aylandi. Ular jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarining faol bo'g'ini hisoblanmoqda. Zamonaviy makonni bunday o'zgarishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. "innovatsiya" tushunchasi deyarli barcha sohalarida qo'llaniladi, uy sharoitida ham, professional darajada ham, shu jumladan davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar darajasida ham dolzarb mavzu hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonning o'tgan asrdagi sekinlik bilan kechishi uni to'liq sinab ko'rishga imkon bermadi. Postindustrial davridagi jadal iqtisodiy rivojlanish sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi: Innovatsion jarayonlar taraqqiyot shartiga aylandi; innovatsiyalar ishlab chiqarishning etakchi omiliga aylanmoqda; o'zgarishlar tezligi oshmoqda. Innovatsion



faoliyat asosiy faoliyat maqomiga davogarlik kilmoqda va korxonaning strategik rivojlanishi uchun zarur shartidir. Adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasining turli xil ta’riflari mavjud bo’lib, ular ko’pincha “yangilik” tushunchasi bilan chalkashtirib tavsiflanadi. Shu munosabat bilan ularning o’ziga xos farqlariga e’tibor qaratish lozim. innovatsiya – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o’sish samaradorligini ta’minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, ixtirolari va rasionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. Yangi iste’molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish – innovatsiyaga misol bo’la oladi. innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o’rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o’rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi. “innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so’zidan olingan bo’lib, “yangilanish” (yoki “o’zgarish”), “in” qo’shimchasi esa lotinchadan “yo’nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko’rinishida tarjima qilsak – “o’zgarishlar yo’nalishida” deb izohlanadi.

Innovation tushunchasi birinchi bo’lib XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo’ldi.


“Innovatsiya” tushunchasi o’zining yangi hayotini “Innovatsion kombinasiyalarni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o’zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo’llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Keng tarqalgan yangilash fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi. Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi Ilm-fan – bu ma’lum mablag’larni bilimlar va g’oyalarga aylantirish. Innovatsiyalar – bu bilimlar va g’oyalarni mablag’larga aylantirishdir. Ixtiro – bu yangi konsepsiyani yaratish demak. innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko’rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish [7]. Yangilik - bu intellektual faoliyat natijasidir; bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma’lum birikmasi. 1-rasmda yangilik hayot siklining asosiy bosqichlari ko’rsatilgan.



1-rasm. Yangilikning namunaviy hayot siklining asosiy bosqichlari²⁶

Yangilikdan farqli o’laroq, innovatsiya – bu iqtisodiy samara olish uchun yangiliklarni amalda qo’llashdan iborat bo’lgan hodisadir. 2-rasmda

innovatsiyalarni hayot siklining asosiy tarkibiy qismlari ko’rsatilgan.



²⁶ Muallif ishlanmasi

**2-rasm. Innovatsiyaning hayot siklining asosiy tarkibiy qismlari**²⁷

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda shuni ta'kidlash kerakki, aqliy mehnat mahsuli va uni amaliyotga joriy etish huquqlari yig'indisi deb ta'riflanadigan intellektual mulk obyektlari innovatsion faoliyatning muhim natijasi sanaladi. Intellektual

mulkning xilma-xil turlari mavjud, ular korxona kapitalining bir qismini tashkil etadi, jumladan sotib olingan huquqlar, franchayzing va gudvill (uni korxonaning biznes obro'si sifatida tavsiflash mumkin).

1-jadval**Innovatsiyalar tasnifi**

№	Mezon	Innovatsiyalarning turi
1	Tarqalganligi bo'yicha:	- yagona; - tarqoq.
2	Ishlab chiqarish siklidagi o'rni bo'yicha;	- xom-ashyoviy; - mahsulotli; - ta'minotli.
3	Boshqa innovatsiyalar bilan bog'liqligi bo'yicha:	- ochib beruvchi; - inkor etuvchi; - o'rini bosuvchi; - qaytariladigan.
4	Bozorni egallashi bo'yicha:	- mahalliy; - tizimli.
5	Yangilikningsalohiyati va darajasi bo'yicha:	- radikal; - takomillashtiruvchi; - aralash.
6	Korxona faoliyat yo'nalishi bo'yicha:	- texnologik; - iqtisodiy; - marketing; - ijtimoiy; - ekologik

Intellektual mulk nomoddiy aktivlar qatoriga kiradi. Intellektual mulkning natijasi - bu alohida shaxsning yoki ilmiy-tadqiqot guruhning aqliy va ijodiy faoliyatining intellektual mahsuli. Ushbu mahsulot turli shakllarda bo'lishi mumkin: ilmiy ixtirolar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining natijalari, shuningdek turli sohalarida konsalting xizmatlari, ya'ni intellektual mulk obyektlari (IMO). Intellektual mulk obyektlari patent huquqi (sanoat mulki obyektlari) va mualliflik huquqiga ega obyektlarga bo'linadi. Sanoat mulki obyektlariga ixtirolar, sanoat namunalari, shuningdek tovar belgilari, korxona nomi va boshqalar kiradi. Ko'p hollarda innovatsiyalar iqtisodiyotning real sektoriga turli xil ixtirolarni joriy etish natijasida yaratiladi, ularga jahon miqyosidagi yangiliklar,

texnologik darajasi va sanoatdagi iste'moli yuqori bo'lgan yangi qurilmalar, moddalar, texnologiyalar, tabiiy hujayralar (o'simliklar va hayvonlarning) kiritish mumkin (3-rasm).

3-rasmni tahlil qilganda, shuni ta'kidlash kerakki, barcha mualliflik huquqiga ega obyektlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: - monografiyalari, dissertatsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari hisobotlari, ilmiy-amaliy konferensiyalardagi maqolalar, texnik hujjatlar, kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari, integral mikrosxemalar va boshqalarni o'z ichiga olgan texnik guruh; - turli san'at asarlarini o'z ichiga olgan gumanitar guruh. Intellektual mulkning muhim qismini intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqini beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

²⁷ Muallif ishlanmasi

**3-rasm. “Ixtiro” va “innovatsiya” tushunchalarining taqqoslama tahlili²⁸**

Hozirda O‘zbekiston xalqaro tog‘ turizmi raqobatchilik kurashida yutqazmoqda. Shulardan kelib chiqib, biz O‘zbekistonda xalqaro tog‘ turizmining o‘chog‘i bo‘lishi mumkin bo‘lgan tekislik-tog‘ marshrutlari haqida ma‘lumotlarni e‘tiboringizga havola qilishni maqsadga muvofiq deb topdik. Bular quyidagilar :

I.O‘zbekistonda xalqaro tog‘ turizmini rivojlantirishning birinchi markazi Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘rida joylashgan Zomin tog‘idir.

Keyingi vaqtlarda bu hudud tabiatining noyob va ekzotik xususiyatlari hamda butun dunyoga mashhur tarixiy yodgorliklarga boy shaharlarning yaqinligi tufayli xorijliklarda qiziqish uyg‘otmoqda. Muhimi, bu hududga borish oson (Toshkent-Samarqand elektrlashgan temiryo‘l yoqasida joylashgan Dasht-obod shahri orqali Zomin tumani markaziga 22 kilometr).

Bu hududning turistlarni jalb qiladigan ekzotik geografik (landshaft) obyektlaridan biri – Zomin milliy bog‘idir. Bu erga kelgan turistlarni tabiatning noyob hodisalari: tog‘ relyefi, mag‘rur turgan cho‘qqilar, sharshara, g‘orlar (20 dan ortiq g‘or bor), relik o‘simliklar, archazorlar, noyob hayvon turlari, nurash natijasida hosil bo‘lgan odamsimon shakllar, dunyoda kam uchraydigan arid (qurg‘ochil) mintaqalarga xos bo‘lmagan super ekzotik karst jarayonlari – “egat“, “jo‘yakli“, “chuqurcha“, “o‘yiq“ shudgorsimon, chuqursimon shakllar, o‘zgarmagan go‘zal, maftunkor tabiat o‘z qo‘yniga oladi.

Bu marshrut quyidagicha tuziladi: Dashtobod-Zomin milliy bog‘i-o‘o‘ralash archazorlari-“Qirg‘iz“ va Karst dalalari-Baxmal (novqa karst bulog‘i), Avliyo bulog‘i-Ilon o‘tdi g‘ori-Peshg‘or g‘ori-Zomin.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston tog‘lariga o‘xshash sharoitda joylashgan AQShning qoyali tog‘laridagi Sante-fe va Hindistonning Lordjini baland tog‘li kurortlari ham butun dunyoga mashhur. Lekin iqlim sharoiti, joyning relyefi, noyob kompleks tabiiy sharoiti bo‘yicha birgina Zominsuv daryosi havzasidagi Supa platosi bu kabi tog‘- sport markazlaridan yuqori turadi.

II. “Samarqand – Omonqo‘ton g‘ori“ marshruti.

O‘ziga xos turistik obyektlarga boy bo‘lgan xalqaro turistik obyektlardan biri Zarafshon tog‘laridir. Bu erda 30 dan ortiq g‘or va minglab karst ko‘rinishlari bo‘lib, bu turizmining ayrim sohalarini rivojlantirishga imkon beradi. Zarafshon tog‘lari engil eruvchi, karst hosil qiluvchi devon geologik davrining ohaktoshlaridan tuzilgan. Shuning uchun bu tog‘lar qadimgi karst g‘orlarining ko‘pligi bilan farq qiladi.

Ayniqsa, bu erda butun dunyoga mashhur Omonqo‘ton g‘ori bor. o‘or 1220 metr balandlikda, Samarqand-Kitob yo‘lining yoqasida joylashgan. Chet elliklar g‘ordan tashqari Omonqo‘ton daryosi atrofida bir yarim asr avval inson qo‘li bilan tog‘ yonbag‘rida yaratilgan aralash o‘rmonlarni ko‘radi.

III. “Samarqand – Kamongaron“ marshruti.

Xorijlik sayyohlar uchun eng noyob ekzotik landschaft – Samarqand shahridan 50 kilometr janubda, er sathidan 2200-2300 metr balandlikda joylashgan Qirg‘tog‘ platosidir. Bu joy landschaft manzarasiga ega bo‘lib, plato devon davrining ohaktoshlaridan tuzilgan. Bu esa O‘rta Osiyo sharoitida karst jarayonlarining keng, intensiv va klassik rivojlanishiga misol bo‘la oladi. Bu erda 3 mingdan ortiq karst ko‘rinishlari, 64 bo‘shliq (polost), 5 ta gorizonttal g‘or, 56 ta quduq va shaxta mavjud. Eng chuqur shaxta 1080 metr bo‘lib, uning suv yig‘uvchi katta ko‘li bor. Bu karst ko‘li Urgut va Kitob tumanini suv bilan ta‘minlaydi. Karst shaxtasi esa MDH hududi va Osiyo qit‘asidagi eng chuqur tabiiy g‘or hisoblanib, dunyoning eng chuqur g‘orlari o‘rtasida uchinchi o‘rinni egallaydi.

IV. “Buxoro – Sarmishsoy“ marshruti.

Zarafshon vodiysida tekislik-tog‘ turistik tizimidagi yana bir marshrut Buxoro-Sarmishsoy marshrutidir. Buxoro shahrida mehmonxonalarda joylashgan sayyohlar avtobusda Buxorodan o‘arbiy Nurota tog‘larining janubiy yonbag‘rida joylashgan Sarmishsoy vodiysidagi tog‘ qoyalariga tushirilgan qadimgi noyob rasmlarni tomosha qiladilar. Bu turistik obyekt Nurota tog‘larining g‘arbiy chekka qismining janubiy yonbag‘rida, buyuk meros saqlanib qolgan Sarmishsoy massivida joylashgan. Sarmishsoy noyob yodgorlik hisoblanib, katta qiziqishga ega bo‘lgan va butun dunyo mutaxassslarining diqqat-e‘tiborida turadi. Bu qoya san‘atining ulkan yodgorligi bo‘lib, qadimgi o‘simliklar va hayvonlar to‘dasining evolyusiyasi haqida aniq tasavvur beradi. Sarmishsoyning tog‘ manzarasi o‘zining ulug‘vorligi, tarixiy va tabiiy o‘ziga xosligi, takrorlanmas garmoniyaligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Bu erda neolit davridan boshlab, hozirgi paytgacha yaratilgan petrogliflar bir necha mingdan ortiq sanaladi.

O‘zbekistonda yana qo‘shimcha turistlar oqimini vujudga keltirish imkoniyatlaridan biri – kongress turizmini yo‘lga qo‘yishdir. Bu qadimiy tarixiy shaharlar – Samarqand, Buxoro va Toshkentda xalqaro kongress va konferensiyalar tashkil qilish, degani. Kongress va konferensiyalar dasturiga tekislik-tog‘ tizimi bo‘yicha Samarqand-Zarafshon tog‘lari tizmasiga, mashhur Omonqo‘ton g‘origa, Sarmishsoy tog‘ massiviga ekskursiyalar uyushtirish kerak. Jahon tajribasida bunga misollar ko‘p. Masalan, birgina Jenevada har yili 200 dan ziyod konferensiyalar o‘tkaziladi. So‘ng ko‘l atrofidagi tog‘larga marshrutlar tashkil qilinadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonning tog‘li mintaqalarini, shu jumladan, rekreasiyaviy imkoniyatlarini ishga solish mamlakatimizga qo‘shimcha har yili 10-12 ming chet ellik va mahalliy turistlarning kelishi, buning natijasida 10 million AQSh dollaridan ziyod qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda tog‘ turizmga mujassamlashgan ulkan salohiyatni ruyobga chiqarish, uni milliy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi rolini keskin oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi mavqeyini mustahkamlash ushbu tarmoqni taraqqiyotning

²⁸ Muallif ishlanmasi<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



an'anaviy modelidan uning innovatsion modeliga o'tishini taqozo etadi. Bu borada mamlakatimizda jiddiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Aytish joizki, o'tgan 10 yilda mahalliy va xorijiy investorlar mazkur yo'nalishga 6,5 milliard dollar sarmoya kiritib, 230 ming mehmon o'rni yaratdi. Istiqbolda ularning soni yana 30 mingga ko'payishi kutilmoqda. Parkentning "Oltin bel" cho'qqisida xalqaro darajadagi yangi tog'-chang'i zonasi barpo etilayapti. Fransiyaning "Kurshtal" tog'-changi kurorti tog'li hududlarimizda Yevropa standartlariga mos turizm maskanlarini tashkil qilishga katta qiziqish bildirmoqda. Bu, eng avvalo, yurtimizda biznes muhiti va infratuzilma sifati yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda tog' turizmini innovatsion asosda rivojlantirishning ahamiyati va zarurligini mantiqiy dalillar asosida asoslab berish zarur.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ko'rsatilgan rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlarini tasdiqladi. Innovatsion taraqqiyotning natijaviyligi uning inson faoliyatini barcha turlarini va milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini qamrab olish darajasi bilan belgilanadi. Bu borada tog' turizmi ham milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida, istisno emas. Tog' turizm sohasiga innovatsiyalarning paydo bo'lishi va amal qilishi ushbu tarmoqda tizimli, bir-biriga uzviy bog'liq va katta ijobiy samara beradigan o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

Ikkinchidan, tog' turizmi sohasiga katta miqdordagi resurslar jalb etilgan va ulardan Innovatsion asosda samarali foydalanish, sohani tez sur'atlar va barqaror rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. 1992-yilda Rio-de-Janeyro Konferensiyasida qabul qilingan taklifga muvofiq, resurslarning batamom tugatilib ketishiga yo'l qo'ymasdan, kelgusi avlodlar uchun ham imkoniyat qoldirgan holda erishilgan rivojlanish barqaror rivojlanish deb aytiladi. Demak, barqaror rivojlanishning asosiy g'oyasi qimmatbaho, nodir va noyob resurslardan unumli, ya'ni o'ta tejamkorlik bilan foydalanishga erishishdan iborat. Chunki iqtisodiy resurslarning ayrim turlari qayta tiklanmaydi va ulardan asrab-avaylab foydalanish o'tkir zaruratga aylanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, barqaror rivojlanish konsepsiyasining turizm sohasiga tadbiq etish lozimligiga e'tibor qaratdik. Tog' turizmi xizmatlariga talabning tez sur'atlar bilan o'sib borishi sohaga jalb etiladigan resurslarning ham mos ravishda o'sib borishini taqozo etadi. Bu esa tarmoqqa jalb etilgan investitsion resurslardan unumli foydalanish muammosining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Uchinchidan, globallashuv jarayonlari jadallashuvining bevosita ta'siri ostida tog' turizmi bozorida raqobat muhitining tobora keskinlashib borayotganligi va innovatsion taraqqiyot turistik mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanganligi. Tog' turizmi sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – uning yuqori daromadligidir. Natijada innovatsiyalar, ularning paydo bo'lishi, joriy qilinishi, amal qilishi tog' turistik xizmatlar bozorida turoperatorlar va turagentlar

mavqeyini mustahkamlashning va raqobatbardoshligini oshirishning birinchi darajali vositasi hisoblanadi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda tog' turizmini taraqqiyotning innovatsion yo'liga o'tkazish zarurati mamlakatning ushbu tarmog'ida rivojlanish sur'atlarining sustligi, turistik salohiyatdan foydalanish ko'rsatkichlarining pastligi, jahon turistik bozorida mavqeyining zaifligi, xalqaro taqqoslama va tenglashtirishlarda bardosh bera olmayotganligi bilan izohlanadi.

Beshinchidan, innovatsiyalar va ularni keng qo'llash tog' turizmi faoliyati bilan shug'ullanuvchi turistik korxona va tashkilotlar uchun yuqori ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Alohida olingan tog' turizmi faoliyati bilan shug'ullanuvchi turistik korxonada tashkiliy innovatsiyalar (masalan, mehnatni ilmiy tashkil qilish, Innovatsion menejment) jismoniy mehnatni engillashtirishga, ishchi-xodimlar mehnat sharoitini yaxshilashga, qo'l mehnatining jami mehnat sarflaridagi ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Tog' turizmi faoliyati bilan shug'ullanuvchi turistik korxona yoki tashkilotda texnologik innovatsiyalarning joriy etilishi ishchi-xodimlar malakasini oshirish, mehnat unumdorligini o'stirish, ish haqi daromadlarini ko'paytirish, resurslarni tejash asosida korxona yalpi daromadlari va foydasini ko'paytirish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, innovatsiyalar jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Amalda ular foydani ko'paytirish orqali iqtisodiy samarani oshirishning quroli, vositasi hisoblanadi. Tog' turizmi faoliyati bilan shug'ullanuvchi turistik faoliyat serqirra va murakkab bo'lib, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi qulay makon hisoblanadi. Keskin raqobat muhitida faoliyat olib boruvchi tog' turizmi korxonasi (turoperator va turagentlik) nisbatan yuqori sifatli innovatsion turistik xizmat yoki innovatsion turistik mahsulot yaratish, yangi turistik yo'nalish ishlab chiqish, tannarxni pasaytirish, vaqt birligida turmahsulot hajmini ko'paytirish, iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish va boshqa tadbirlar orqaligina bozordagi o'z mavqeyini saqlab qolishga va uni mustahkamlashga erishdi. Bu esa, pirovard natijada tarmoqda yuqori daromadlilikni ta'minlaydi.

Shu sababli, tog' turizmi faqat innovatsiyalardan o'rinni foydalanish evaziga inson faoliyati barcha turlari o'rtasida eng yuqori daromadli soha sifatida mavqeyini saqlab qoladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hozirgi kunda tog' turizmi sohasida innovatsiyalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar borligini ko'rsatdi. Kelajakda O'zbekistonda tog' turizmi sohasida innovatsiyalarning unda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini kuchaytirish, rolini oshirish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

- tog' turizmi tarmog'ida va uning tarkibidagi korxonalarda amalda joriy qilingan innovatsiyalarning rolini keskin oshirish;

- tog' turizmi tarmog'ida innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda va uni amaliyotga joriy qilishda malakali mutaxassislarni jalb etish;



– tog‘ turizmi tarmog‘ida Innovatsion faoliyatni boshqarishda ushbu faoliyatning prinsiplari (tizimlilik, xavfsizlilik, dolzarblilik va ilmiylilik);[8]

– tog‘ turizmi tarmog‘ida innovatsion jarayonlarni jadallashtirishda investision resurslarning rolini keskin oshirish.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa shundan iboratki, O‘zbekistonda tog‘ turizmini mamlakat milliy turizm iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish maqsadida tez sur‘atlar bilan rivojlantirishni zaruriy investision resurslar bilan ta‘minlashning ekstensiv omillari benihoya cheklangan ahamiyatga ega. O‘zbekistonda tog‘ turizmini rivojlanish sur‘atlarini konsepsiyasida belgilangan ko‘rsatkichlar darajasiga ko‘tarish sohada investision yo‘naltirilgan faol iqtisodiy muhitni shakllantirishni taqozo etadi. Ana shundagina tog‘ turizmi sohasida mavjud ulkan salohiyatni ro‘yobga chiqarish hamda mamlakat va uning alohida mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining multiplikatoriga aylanishi mumkin.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xidirov Alimardon Dagarovich Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura- qurilish universiteti tayanch doktoranti / Хидиров Алимардон Дагорович, аспирант Самаркандского государственного университета архитектуры и гражданского строительства имени Мирзо Улугбека

/ Khidirov Alimardon Dagarovich, postgraduate student of the Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering named after Mirzo Ulugbek

E-mail: alimardon.16.09.1988@gmail.com

ORCID: 0009-0004-9707-1426

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi “Faol tadbirkorlik va innovasion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gining PQ-3697-sonli qarori.

2. Utkin E.A. Upravleniye kompaniyami. Moskva, 1997.-304 s.

3. Stepanova I.P. Innovatsionnyy menedjment. Uchebnik. 2014.

4. L.Vodachek, O.Vodachkova. Strategiya upravleniya innovatsiyami na predpriyatii. Moskva, Ekonomika, 1989-167 s.

5. L.A.Bayev Sistemnyy podxod k vyavleniyu innovatsiy 34 s.

6. <https://kun.uz/> Innovatsion rivojlanish vaziri bilan eksklyuziv suhbat.

7. <https://www.terabayt.uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida>.

8. Абульян Ю.И. Особенности инноваций в туризме // Экономика. Право. Печать. Вестн. КСЭИ. – 2013. – № 3. – С. 241-250.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz